

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

№ 67

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

№ 67

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2022-yil 8-fevral

“Adast poligraf”
TOSHKENT -2022

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o’rganish masalalari / – Toshkent. – 2021. – 528 b

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2022-yil 8-fevral kuni o‘tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan 67-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch-doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

Tahrir hay’ati:
Maqsud Asadov, f.f.d., bo‘lim mudiri
Qodirjon Ergashev, f.f.n., katta ilmiy xodim
Sayfiddin Rafiddinov, f.f.n., katta ilmiy xodim
Ergash Ochilov, f.f.n., katta ilmiy xodim
Burobiya Rajabova, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sirdaryoxon O‘tanova, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho Rahmonova, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
Nasiba Jo‘raqulova
Dilmurod Asqarov

6. Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”. Mukammal asrlar to’plami. 20 jildlik, 9-jild. – Toshkent, 1992.
7. Alisher Navoiy. “Sabbai Sayyor”. Mukammal asrlar to’plami. 20 jildlik, 10-jild. – Toshkent, 1992.
8. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. Mukammal asrlar to’plami. 20 jildlik, 11-jild. – Toshkent, 1993.

ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLARNING TARJIMADAGI ADEKVATLIGI MASALALARI

Muqaddas OQMAMATOVA,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi milliy-madaniy frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjimasi Alisher Navoiy lirikasi misolida tahlil qilindi va mazkur jihatning tarjimadagi murakkabliklari borasida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: adekvat, semantik, ottenka, frazeologiya, idiomatik, badiiyat.

Аннотация

В данной статье анализируется перевод узбекской национально-культурной фразеологии в стихотворениях Алишера Навои. Кроме того, обсуждаются сложности этого аспекта в переводе.

Ключевые слова: адекватный, семантический, оттенок, фразеология, идиоматический, искусство.

Annotation

In this article, the translation of Uzbek national-cultural phraseology is analyzed in the Alisher Navoi’s poems. Besides that, complexities of this aspect in translation are discussed.

Key words: adequate, semantic, phraseology, idiomatic, art.

Tarjimaning o‘ziga xos murakkabliklari borasida so‘z ketar ekan, eng avvalo, she’riy asar tarjimasi, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini me’yoriga yetkazib boshqa bir tilga o‘girish mutarjimdan ikki barobar og‘ir mehnatni talab qiladi. Negaki she’riy asarlarni tarjima qilish uchun lirikaga xos qofiya, turoq singari terminlarni yaxshi tushunish, iloji bo‘lsa

tarjimonning o‘zi ham shoir bo‘lsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa, “Xamsa” asari, dostonlari, “Xazoyin ul-maoniy” (Ma’nolar xazinasi) she’riy to‘plamida shoirning o‘lmas asarlari o‘rin olgan. Ularni dunyo tillariga tarjima qilish, tarjima qilganda ham me’yoriga yetkazib tarjima qilish bugungi o‘zbek tarjimashunosligining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. To‘g‘ri, Q.Ma’murovning[1] Alisher Navoiy ruboiylarini ingliz tiliga tarjimalari bir qadar muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin. Ammo shoir she’rlari hali yetarli darajada o‘zbek tiliga o‘girilgan deya olmaymiz. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish ancha murakkablik tug‘diradi. “Frazeologik birliklarning qo‘llanishi nutqning jozibadorligini oshiradi, chunki ularning ko‘pchiligida umumlashgan metaforik ma’no, baho va emotsionallik mavjud.

M.Umarxo‘jayev frazeologik birliklarni so‘z birikmasi va gap tuzilishiga ega bo‘lgan alohida shakllantirilgan turg‘un kompleks sifatida baholaydi.”[2] Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklar esa tarjima jarayonida diqqat-e’tiborni talab qiladi.

Birinchidan, ularda qo‘llangan so‘zlar mumtoz adabiyotga xosligi bilan;

Ikkinchidan, ayrim frazeologik birliklar bugun iste’moldan chiqqan bo‘lishi yoki bugun qo‘llanmasligi mumkin.

Ana shu jihatlarni hisobga olib bu turg‘un birikmalarni ingliz tiliga o‘girishda ayrim qiyinchiliklar tug‘ilishi tabiiy.

Alisher Navoiy asarlaridagi frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda qanday yo‘l tutgan ma’qul?!

Qaysi holatlarda mutarjim asarning ohorini to‘kmay inglizchaga o‘girsa bo‘ladi?! Quyida mazkur jihatlar borasida baholi qudrat fikrlarimizni bayon etamiz.

O‘zgalar husnin tamosho aylasam chiqsin ko‘zim,

O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamosho aylasa.[3]

O‘zbek tilida “ko‘zim chiqsin” iborasi so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi. Bu frazaning ma’nosi Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi:

“Ko‘zlari kosasidan chiqib ketdi, ko‘zlari qinidan chiqib ketdi, ko‘zining paxtasi chiqdi ya’ni g‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi.”[1]

[1] Alisher Navoiy. Ummondan durlar/Die Perlen aus de Mozean. Pearls from the Ocean. G‘azallar, hikmatlar va ruboiylarning namunalari. O‘zbek, nemis va ingliz tillarida. Ingliz tiliga: Q.Ma’murov tarjimasi. Toshkent:2000, 143-bet.
[2] Umarxo‘djayev M.M. Основы фразеографии. Andijon: 1979. 85-bet.
[3] Alisher Navoiy. 20 jildlik. 3-jild. Toshkent: 1988. 43-bet.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa quyidagicha izohlanadi:

“Ko‘zi chiqmoq, ko‘zining paxtasi chiqmoq. O‘ta darajadagi g‘azab, hayajon va h.k. ta’sirida ko‘zi ola-kula bo‘lmoq”.[2]

Baytning ma’nosi: Sening husningni tomosha qilsam, meni ham o‘zgalar bo‘lsa, o‘zgalarni ham ko‘zi chiqsin. Ya’ni lirik qahramon o‘z yorini boshqalardan o‘ta qattiq qizg‘onganining guvohi bo‘lamiz.

Ingliz tilida mazkur frazeologik birikmani ifodalovchi bir nechta idiomatik birikmalar mavjud bo‘lib, ularni she’r ma’nosiga eng yaqinini, shuningdek, aruzdagi hijolar sonini hisobga olgan holda tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

1. Ingliz tilida “out of the blue” frazeologik birligi “happening in a way that is sudden and unexpected, and does not seem connected with anything that happened before”[3] ya’ni o‘zbek tilida “to‘satdan yoki kutulmaganda sodir bo‘lgan voqeaga hayron qolish” ma’nosini ifodalaydi. Bu birikma “ko‘zi chiqmoq” iborasiga qisman mos keladi. Chunki bu iborada ingliz tilidagi ma’noni ifodalash uchun voqea-hodisa oldin sodir bo‘lmagan bo‘lishi kerak.

2. “eyes on stalks” frazeologik birligi esa, “if your eyes are on stalks when you look at something, they are wide open with surprise or amazement”[4] ya’ni “biror narsaga qaraganda hayratdan ko‘zlarning katta ochilishi” ma’nosini anglatadi. Bu frazeologik birlik o‘zbek tilidagi she’rda aks etgan “ko‘zi chiqmoq” birikmasiga ma’no jihatdan yaqin ekvivalent deyish mumkin. Chunki ikkala tilda ham birikmaning adekvat ma’nosi bir-biriga mos kelmoqda.

3. Ingliz tilidagi “an eye opener” birikmasi “the idea of widening your eyes because of hearing or seeing something surprising or unexpected”[5] o‘zbek tiliga tarjima qilinganda quyidagicha izohlanadi: “hayratlanarli yoi kutilmagan narsalarni eshitish yoki ko‘rish tufayli ko‘zini kattalashtirish”. Izohdan ko‘rinib turibdiki, bu birikma ham yuqoridagi “eyes on stalk” birikmasiga ma’no jihatdan yaqin hisoblanadi. Shu sababli ham, bu frazeologik birikmadan “ko‘zi chiqmoq” iborasini ingliz tilidagi tarjimasi sifatida foydalansak bo‘ladi.

Bunday vaziyatlarda tarjimon, albatta, ma’noda adekvatlikni hisobga oladi, ya’ni har jihatdan mos, teng keladigan, semantik jihatdan eng o‘xshash va muvofiq variantlarni tanlashi lozim.

---

[1] Sh.Rahmatullayev O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, Toshkent:2006, 447-bet.

[3] Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Malayziya:2012. 149-bet.

[4] https//www.learn-english-today.com

[5] https//www.learn-english-today.com

Har tanuqturkim, tiriklikdin manga sensan murod,

Yo‘qsa olamdan yo‘qi-bori barobardur manga.[1]

Lirik qahramonning yashashdan murodi, maqsadi yorning borligidir. Bo‘lmasa dunyo uning uchun hech narsaga arzimasdek ko‘rinadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “bor-yo‘g‘i” birikmasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“1.Bisotida, ixtiyorida bo‘lgan hamma narsa, boylik, bud-shud.

2. Daragi, borligi yoki yo‘qligi.

3. Hammasi bo‘lib, atigi, faqat.”

Alisher Navoiyda mazkur frazeologik birlik “yo‘g‘i-bori” tarzida ifodalansa-da, ma’noda bari-bir yuqoridagi ottenka kuzatiladi.

Ingliz tilida yana bir nechta idiomatik frazema berish orqali, ularning orasidan eng adekvatini tanlash tarjimonning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. Masalan:

1. “Bor-yo‘g‘i” birikmasi ingliz tilida “everything an all”[2] birikmasi bilan ifodalanib kelib, “hamma narsasi ya’ni borlig‘i” degan ma’noni ifodalaydi. Tarjimada ingliz tilidagi birikma o‘zbek tilidagi birikmaning adekvati bo‘la oladi. 2. Ingliz tilida “everything from A to Z” frazeologik birligi “everything one can reasonably imagine; many different things, often to the point of excess or redundancy” ya’ni o‘zbek tilida “tasavvur qilish mumkin bo‘lgan hamma narsa” degan ma’noni anglatib kelib, tarjimada she’rdagi “bor-yo‘g‘i” ma’nosini ochib bera oladi. Lekin tarjimon yuqoridagi ekvivalent tarjimalardan birini tanalashda tarjima qilinayotgan she’rning hijolar sonidan kelib chiqib tanlagani ma’qul.

Ko‘ngil olg‘anda deding, sendin dame ayrilmayin,

Jon nisorim aylasa ishq ahli ko‘zga ilmayin.[3]

Yuqoridagi baytda “ko‘ngil olmoq” va “ko‘zga ilmaslik” kabi ikkita frazeologik birikmalar qo‘llangan bo‘lib, bular “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday tavsiflanadi:

“Ko‘ngil olmoq. 1.Xursand qilmoq. 2.Birovning sevgisini qozonmoq, o‘ziga mehr-muhabbat uyg‘otmoq, rom qilmoq.”[4]

Yoki “ko‘z ilg‘amas” frazeologik birlik: ko‘zga ilmaslik ayn. nazarga ilmaslik.[5] Nazariga ilmaydi. Mensimaydi, pisand qilmaydi.[6]

[1] Alisher Navoiy. III jild. Toshkent:1988; 36-bet.
[2] https://idioms.thefreedictionary.com
[3] Alisher Navoiy IV jild. Toshkent:1989. 480-bet.
[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. 465-bet.
[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. 446-bet.
[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. 9-bet.

Yuqoridagi frazeologik birliklarning adekvatlik jihatdan moslarini tanlab ingliz tiliga tarjima qilish uchun bir nechta variantlarni tavsiya etamiz. “Ko‘ngil olmoq” birikmasini ingliz tilida “teach a man to fish”, “actions speak louder than words”[1] frazemalari ma’nosiga qisman yaqin keldi, lekin o‘zbek tilidagi birikmaning ma’nosi aynan ochib bera olgan deya olmaymiz. She’rda qo‘llanilgan “ko‘zga ilmaslik” ya’ni mensimaslik ma’nosi ingliz tilida ko‘plab frazeologik birikmalariga ega hisoblanadi. Bular: “burn your boats”, “make up for lost time” va boshqalar. Tarjima jarayonida tarjimon she’r manosiga yaqin keladigan hamda hijolar soniga mos keladigan frazeologik birlikni tanlab foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ko‘rinadiki, badiiy matn tarjimasida, ayniqsa, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini to‘la anglay olmay turib, tarjima ishiga kirishish asarning badiiyatiga, ma’nosiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijodkorlar, eng avvalo, bir-birining uslubini, so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos jihatlarini, ikki tilda ham o‘zaro adekvat ma’nolarini ochib beradigan ifoda yo‘nalishini tushunishi lozim. Shundagina tarjimadan yaxshi natija chiqadi. Milliy qadriyatlar, o‘sha xalqning madaniy hayotini bilish tarjimon uchun birinchi o‘rinda turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Ummondan durlar/Die Perlen aus de Mozean. Pearls from the Ocean. G‘azallar, hikmatlar va ruboiylarning namunalari. O‘zbek, nemis va ingliz tillarida. Ingliz tiliga: Q.Ma’murov tarjimasi. Toshkent:2000, 143-bet.
2. Umarxo‘djayev M.M. Основы фразеографии. Andijon: 1979. 85-bet.
3. Alisher Navoiy. 20 jildlik. 3-jild. Toshkent: 1988. 43-bet.
4. Sh.Rahmatullayev O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.
5. Alisher Navoiy. III jild. Toshkent:1988; 36-bet.
6. Alisher Navoiy IV jild. Toshkent:1989. 480-bet.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. 446-bet.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. 9-bet.
9. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Malayziya:2012. 149-bet.
10. https://idioms.thefreedictionary.com
11. https//www.learn-english-today.com

[1] https://idioms.thefreedictionary.com

Barno Isakova (Qirg‘iziston). Navoiy she‘riyatining O‘sh adabiy muhitiga ta‘siri (Muhammadxon Maxjuriy ijodi misolida)……..…463
Ra’no Fayzullayeva (O‘zbekiston). Sirojiddin Sayyid ijodida navoiyona ohanglar…….…..469
Hilola Raimova (O‘zbekiston). “Navoiy” romanining qiyosiy tahlili……...…….…..473

Alisher Navoiy va tilshunoslik masalalari

Abduraxim Nasirov, Usmonjon Ermatov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy hikmatli so‘zlarida milliy-madaniy xususiyatlarning aks ettirilishi……...……..480
Musajan Tadjibayev (O‘zbekiston). Hermeneutics of lingvopoetic paradigms in Navai lyrics…….……..487
Feruza Hasanova (O‘zbekiston). Ajdodlar merosi - bebaho xazina (“Farhod va Shirin” dostonining Xitoy tiliga qilingan tarjimasi misolida)…….495
Sadoqat Sharipova (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning *“Xamsa”* asarida *makon* bildiruvchi so‘zlarning ingliz tilida berilishi…...…...……499
Muqaddas Oqmamatova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlari misolida milliy-madaniy frazeologizmlarning tarjimadagi adekvatligi masalalari…….…..505
Nodira Barotova (O‘zbekiston). Kichik janrda Alisher Navoiyning badiiy mahorati……...510
Xilola Abdujabborova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy asarlarida “faylasuf” termini ma’nosini bildiruvchi so‘zlar talqiniga doir…….…514
E’zoza Olimjonova (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida shevaga xos so‘zlarning o‘rni……..……..518